

Kafedra tarixi

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3152 sonli Qaroriga asosan tashkil etildi. Institut faoliyat boshlagan dastlabki davrda Pedagogika fakulteti tarkibida boshlang'ich ta'lim tizimiga kadrlar tayyorlovchi Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim sporti kafedrasini ochildi. 2019-yilda Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti rektorining 2019-yil 31-avgustdagi 01-642 sonli buyrug'i asosida Boshlang'ich ta'lim kafedrasini tashkil etildi.

2019-2020 o'quv yillarida Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim kafedrasida jami 13 nafar, asosiy shtatda 9 nafar p.f.n., katta o'qituvchi A.Karimjonov, katta o'qituvchi O. Jabborova, o'qituvchilar G. Tojiboyeva, Z.Umarova, B. Abdullayeva, G. Kuzmanova, F. Ochilov, K.Mamadaliyev, Yu. Kushnazarovlar asosiy shtatda, 4 nafar o'qituvchi o'rindoshlik asosida U. Yaxshiyev, U.Ubaydullayev, G. Yuldasheva, Ye. Aydarov va D. Pulatovlar kunduzgi, sirtqi va maxsus sirtqi bo'limlarida faoliyat yuritishgan. Kafedrada Tarbiyaviy ishlar metodikasi, Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya, Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi, Pedagogik mahorat, Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari, Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlar va Ta'lim-tarbiyaning dolzarb muammolari" fanlaridan dars mashg'ulotlarini olib borishgan.

2020-2021 o'quv yili Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida jami 34 nafar, asosiy shtatda 17 nafar, p.f.n., katta o'qituvchi A.Karimjonov, O.Jabborova, X.Gulyamova, G.Tojiboyeva, B.Abdullayeva, Z.Umarova, F. Ochilov, G.Kuzmanova, M.Musurmonova, Z.Narimbetova, B.Alimov, N.Beketov, Yu. Kushnazarova. D.Tashpulatova, K.Mamadaliyev, G.Poshshaxodjayeva, Z. Xudoyberdiyeva, ichki o'rindoshlik asosida 8 nafar Sh. Mardonov, S.Matchanov, A.Abdullayev, B.Axmadaliyev, O'. Farmonov, G. Yuldasheva, N.Jarasbayevlar va tashqi o'rindoshlik asosida 9 nafar M.Djumayev, S.Boltaboyev, X.Bakiyeva, Sh.Matupayeva, U. Ubaydullayev, D.Pulatova, T. Isakulov, J.Mamadiyorov va O.Mallayev kabi professor-o'qituvchi "Husnixat va uni o'qitish metodikasi", "Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Matematika o'qitish metodikasi", "Ona tili o'qitish metodikasi", "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi", "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya", "Boshlang'ich sinflarda ona tili va matematikadan

sinfdan tashqari ishlar”, “Pedagogi mahorat”, “Boshlang’ich sinflarda axborot texnologiyalari”, “Ona tili va bolalar adabiyoti”, “Boshlang’ich sinflarda sinfdan tashqari ishlar”, “Ingliz tili amaliy fonetikasi”, “Xorijiy til”, “Til aspektlari o’rganish amaliyoti kompetensiyasi” kabi fanlardan dars mashg’ulotlarini olib borishgan.

2021-2022 o’quv yilida Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Kengashining 2021-yil 23-avgustda 1-sonli qaroriga muvofiq Boshlang’ich ta’lim kafedrasini tarkibidan Boshlang’ich ta’lim nazariyasi kafedrasini ajralib chiqdi. Ushbu o’quv yilida jami 25 nafar, jumladan, professor Botirova Shaxlo Isamiddinovna (kafedra mudiri), professor Matchonov Sapa Murodovich, professor Xodjamqulov Umid Negmatovich, f.f.d., dotsent Eshonqulova Surayyo Isomiddinovna, katta o’qituvchi Gulyamova Xolida, o’qituvchilar Qurbonova Feruza Komiljanovna, Omonova Maftuna Shermatovna, Xudoyberdieva Zumrad Xudayberdievna, Mirzorahimov Oybek Qahramonovich, Doniyorova Laylo Xudoyberdievna, Mambetaliev Qayrat Anorbay o’g’li, Mamadaliev Kamoliddin Rahmatullaevich, Toshpulatova Dilorom Babanazarovna, Shermatova Zuhra Hakim qizi, Suleymanova Sevara Abdumalikovna, Madrahimova Inobat Bahodirovna, Ahmadaliev Mahliyo Sherali qizi, Hayrullaeva Ra’no Botirovna, Yuldasheva Gulshod, Qudratilloev Navshod Abdulloevich, Shermatova Umida Sapaevna faoliyat yuritgan. Kafedra o’qituvchilari tomonidan Ona tili o’qitish metodikasi, Boshlang’ich ta’limda ona tili, Boshlang’ich sinflarda ona tili va matematikadan sinfdan tashqari ishlar, Pedagogik mahorat, Boshlang’ich sinflarda axborot texnologiyalari, Ona tili va bolalar adabiyoti, Boshlang’ich sinflarda sinfdan tashqari ishlar, Ingliz tili amaliy fonetikasi, Xorijiy til, Til aspektlari o’rganish amaliyoti kompetensiyasi kabi fanlardan dars mashg’ulotlari olib borilgan.

2024-2025 o’quv yilida kafedra nomi Boshlang’ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti sifatida qayta nomlandi. Hozirgi paytda kafedrada 21 nafar professor o’qituvchi, jumladan, professor Safo Matchon, dotsent Kuchkinov A. Y., dotsent Gulyamova X., dotsent v.b. Mambetaliev Q. A., katta o’qituvchilar Mirzoraximov O. Q., Doniyorova L. X., o’qituvchilar Axmadaliyeva M. Sh., Artikova N. Sh., Madraximova I. B., Xudoyqulova F. B., Suleymanova S. A., Ibragimova D. I., Raximova N. Y. Matkarimova S. Sh., Haydarova G. M., Ibodullayeva S. M., Abdullayeva U. T., Xayridinov B. K., Doniyorova L. X., Karimova N. S., xorijiy professor o’qituvchi Dian Gusrayani faoliyat yuritmoqda.